

## SARIQ RANGINING XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10426722>

**Qurbonova Nasiba**

*Buxoro davlat universiteti*

*Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi*

*1-bosqich magistranti*

*qurbonovanasiba659@gmail.com*

*telefon: (94) 639-36-32*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada rang bildiruvchi sifatlar ,xususan, sariq rangini ifodalovchi leksemalarning ma'nolari tahlilga tortildi. Sariq rangining badiiy asarlar va tildagi tovlanishlari xususida so'z yuritildi. Xususan, sariq rangi va uni ifodalovchi leksemalarning ma'nolarini aniq anglash uchun badiiy asarlardan, gazetalardan misollar keltirildi. Sariqlik rangining ozayish va ortish darajasi, sariq va sariqqa moyil ranglar va leksemalar xususida fikr yuritildi.*

### **Kalit so'zlar**

*sifat, rang, sariq, ramziylik, lisoniy manzara, leksema, badiiy asar, meyor.*

## CHARACTERISTICS OF YELLOW COLOR

### **Abstract**

*In this article, adjectives denoting color, in particular, the meanings of lexemes representing the color yellow, were analyzed. There was a discussion about the yellow color in works of art and language. In particular, in order to clearly understand the meanings of the yellow color and the lexemes representing it, examples from works of art and newspapers were given. The degree of decrease and increase of yellow color, yellow and yellow-prone colors and lexemes were discussed.*

### **Keywords**

*quality, color, yellow, symbolism, linguistic landscape, lexeme, work of art, standard.*

Sifat so'z turkumi va ulardagi rang-tus bildiruvchi so'zlarning turli ko'rinishlari, ma'no tovlanishlarini biz badiiy asarlar hamda so'zlashuv tilida uning turli shakllarda qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin.

Ranglar u yoki bu millatning ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, urf-odati, marosimi,

qadimiy qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Xalqlarning mifologik va diniy qarashlari ham rang orqali turlicha aks etadi. Yana shuni ta'kidlash joizki, xalqlarning ijtimoiy-maishiy hayoti, geografik muhiti ham ranglarga nisbatan qarashlarning xilma-xilligiga olib keladi. Jumladan, dunyoning qutbi ham to'rt xil rangda tasavvur qilingan: sharq- yashil, janub - qizil, shimol - qora, g'arb - oq rangda. ushbu tasavvurga tayangan holda mintaqalarning har birida yashovchilar uchun o'sha rang muqaddas hisoblangan.

Umuman, rang bildiruvchi sifatlar tilda, ayniqsa, badiiy adabiyotda faol qo'llanuvchi, o'zining semantik va leksik xususiyatlari bilan, lingvomadaniy jihatlari bilan alohida ahamiyat kasb etuvchi so'zlar qatoridan joy oladi. Adabiyotda badiiy tasvirni bo'yoqdor va o'ynoqi qilishda, metafora, metonimiyalarni vujudga keltirishda rang-tus bildiruvchi sifatning o'rnini bo'lakdir.

Xalq og'izaki ijodi namunalariga ham diqqat qaratar, qahramonlarini kuzatar ekanmiz, ularda yetti xil asosiy rangning ask etganligiga amin bo'lamiz. Ular oq, sariq, qizil, ko'k, yashil, jigari, qora. ushbu ranglar his-tuyg'uni ifodalovchi, holatni bildiruvchi, joyni anglatuvchi xususiyatlarni o'zida jamlaydi. Xalqning qadimgi totemistik va animistik qarashlari asosida har bir rang o'ziga xos ma'noni o'zida mujassamlashtirgan. Masalan: oq - ezgulik, qizil - quvonch, yashil - tiriklik, sariq - ayriliq va hokazolar.

Sariq leksemi kamalak nurining asosiy ranglaridan birini ifodalovchi so'z bo'lib, badiiy adabiyotda uning o'rnida ba'zan qahrabo, zar kabi ma'nodosh variatlari qo'llaniladi. Mumtoz adabiyotda sariq ma'nosini ifodalovchi za'faron, somon, oltin, oltin rang, tilla rang, ko'hiy so'zlari ham qo'llaniladi, shu bilan birga, quyosh, hayot, muqaddaslik kabi ramziy ma'nolarga ega. (2.26-bet).

Biz bugungi maqolamizda ana shu rang-tus bildiruvchi sifatlardan biri sariq rangiga to'xtalmoqchimiz. "O'zbek tilining izohli lug'atida" sariq so'zi quyidagicha izohlangan:

SARIQ - somon, zarchuva, tilla kabi narsalar tusidagi rang. "U bir kuni she'r liq to'la, qaliningina, sariq mukovali daftarni qo'limga tutqazdi-da, she'rlarning boshi va oxiriga kichik-kichik rasmlar chizib berishimni so'radi". (4.43-bet).

Malla rang, malla (soch, tuk, teri haqida) sariq soch. "Uchinchi kuni ertalab doktorxonadan sariq soch, ko'kko'z yosh bir yigit chiqib quvnoq tovush bilan:

- Usta Abduqahhor!! - deb yubordi." (3.71 bet).

Undan narigisida sochlari sariqdan jigari rangga o'tib ketgan bittasi yotibdi, ko'zi ochiq; bo'lsa ham, qilt etmaydi: yo ;qattiq xayolda, yo yarasi og'ir. (5.368 bet).

Tuxumning oqsil moddasi o'rtasidagi qismi: "Tuxum pachaqlangan edi. Unng sarig'i oqqa aralashib, chakkamdan sizib, yuzimga oqmoqda edi". (7.15-bet)

Jigardagi jiddiy salbiy o'zgarishlar tufayli teri, ko'z oqining sarg'ayishidan iborat og'ir va yuqumli kasallik nomi; gepatit. *Sariq kasalligi*.

Sariq matbuot. Uyatli, sharmandali, janjalli voqealarni yoritishni maqad qilib olgan siyqa, sayoz, past sifatli matbuot haqida. "Shuning uchun ham ko'cha -kuyda "sariq matbuot" ning voqea izidan quvuvchi hikoyalari odamlar o'rganib boryapti". gazetadan.

Sariq chaqa.1) chaqa(pul); juda oz miqdordagi arzimas pul. "Keyin qararak, u sizga bir xalqa olgan ekan, ko'rib hayratda qoldik. Lekin bizda sariq chaqa ham qolmagan edi".(4.197-bet). 2)juda past, arzimaydigan; e'tiborga loyiq emas. "Ommani ergashtira olmagan rahbarning qadri - sariq chaqa". (5. 52-bet).

Sariqcha, ayrim hollarda tilning uchida paydo bo'ladigan so'gaksimon chiqiq, tirsak." - Aldasam, tilimga sariqcha chiqsin! - qasam ichdi bola". "Yoshlik" jurnalidan.

Bundan tashqari o'zbeklar tafakkurida olamning lisoniy manzarasini chizuvchi leksemalar anchaga bolib aynan sariq va sariqqa moyil rang tasavvurini uyg'otuvchi leksemalar ham anchagina. Hozirda kompyuter texnologiyalar rivoji tufayli ranglarning soni ham tobora ko'payib bormoqda.



Sariq rang bu neytral, ya'ni biz tilimizda sariq rangining meyordan oshib yoki kamayib borishiga ko'ra lisonimizda sap-sariq, to'q sariq, och-sariq, nim sariq, sarg'ish, oq sariq, sariqroq kabi rangning turli jihatlarini qo'llaymiz. Masalan: "Devor ostiga yotqizilgan yo'lka bir tekis va keng ;g'ishtlari o'tmas teshada qirib tozalangan bo'lsa kerak, Tasha izlari sap-sariq yiltillaydi". "Chindan ham Qodir Azizani kutib, sap-sariq quruq o'tni beixtiyor ermak qilib tishlayotgani ustiga kelgan edi".(5.60-bet). "Za faron, ingichka, uzun bargli to'q-sariq piyozsimon ildizli o'simlik". (6.184-bet). Bu yerda meyorning ortishi bilan rangni tasvirlayotgan bo'lsa;

"Past bo'ylik, oq-sariqdan kelgan bo'lsa ham zardasi tez Shukurov aravaga endi kirgan otdek o'ynoqlab, har tomonga o'zini urib, nima qilishini bilmay yurard.". (5.109-bet). "Dorilmualliminning talabalaridan biri - novcha, sariqroq, ko'zlari ko'k Hojiqurbon Qosimiy degan bir yigit ayvonning bir chekkasiga qo'yilgan stolning orqasida o'tirib,

*hammaga guvohnoma va har uch bolaga bittadan sopol hushtak ulashmoqda edi*".(3.128-bet). *"Xafaroq ko'rinasan, qizil yuzing ham sariqroq ko'rinyapti?!"*(6.160-b). bu misollarda esa sariq rangining meyordan kamayib borganligi kuzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari , biz o'zbeklarning lisoniy manzarasida bir rangni shu rang tusidagi narsa,predmet,o'simlik nomiga bog'lab nomlash ham mavjud. Birgina sariq rangini oltin, tillorang,zangori, zafaron, somon,somonrang ba'zan qahrabo, zar kabi leksemalar orqali ham ifodalanganini ko'rishimiz mumkin.

Mol sutidan ajratib olingan yog',maska:

*"Har yili Turkistonga, o'zi sevgan Iqon qishlog'iga borib, u yerdan eritilgan qo'y moyi,qorinlarga to'latilgan sariq moy, qovun qurt singari narsalarni ortib-tortib kelardi"*(3.117b). *"Buvim ertalab,biz uyg'onmasdan avval, bir burdadan patirga sariyog' surkab,uni yostig'imiz chetiga qo'yib qo'yardi"*.(3.25-b).

Oltinning rangi sariq rangda bo'lganligi uchun , ba'zan badiiy adabiyot va so'zlashuv nutqida sariq rangni ifodalash va ta'sirchanlikni oshirish maqsadida shu leksemadan foydalaniladi:

*"Tong asta otar ekan ,ufq hali oltinlanmasdan burun o'rnimdan sapchib turaman"*.(3.20-bet).

*"Qizg'ish quyosh yuzi o'ngdi bus-butun.*

*Toza bo'ldi osmon misoli oltin"*.(6.146-bet).

Za'far, za'faron, ingichka, uzun bargli to'q-sariq piyozsimon ildizli o'simlik; ko'chma m'noda. sariq rang, sarg'ishlik ma'nosida:

*"Quyosh tortdi yuzga sariq za'faron,*

*O'zin qildi mayna rangidek jahon"*.(6.146-bet).

Somonning rangi ham sariq rangda bo'lganligi uchun , tilimizda sariq rangni ifodalash uchun somon, somonrang kabi leksemalardan foydalaniladi.

*"Hasadli so'z kishining qizil rangini somonga aylantiradi."*(6.18-bet).

Zangor so'zi metall sirtida hosil bo'ladigan oksid qatlami ma'nosini anglatadi, forscha sariq-yashil ma'nosini bildiradi.

*"Usta kulol Hamroqulning ahvolini ko'rib, darrov boqqa olib kirdi va qayrag'och ostidagi cho'yan oyoqli zangor eshakka o'tqizib, suv keltirdi"*.(5.56-bet).

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, birgina sariq rang tasviri bilan bog'liq tilimizda o'ndan ortiq birliklarining ishlatilishini ko'rib chiqdik.. Demak, tilimizda biz o'zbeklarning lisoniy tafakkurida rang bilan bog'liq yuzlab leksemalarning borligi ma'lum bo'ladi. Bu ranglarning har biri ustida izlanishlar

olib borilgan va olib borilmoqda. Kelgusi izlanishlarimizda tilimizdagi ranglar va ularning xususiyatlariga alohida to'xtalamiz.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мамаражабова З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. Филол.фанлари номз. ...дис. автореф. Тошкент: 2004. 24 б
2. Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. Самарқанд: 2004. 22 б.
- 3.Qahhor A. O'tmishdan ertaklar. T.,2019. 71-b.
4. Саидносирова З. ОЙБЕГИМ МЕНИНГ. Хотиралар. Т.,2006.
5. Хомирзайев Ш. Оltin zanglamas. Sharq nashiryoti. Т.,1995
- 6.Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. Т.,2007.
- 7.G'ulom G'.Shum bola.Adabiyot va san'at. Т.,1983.